



Methodological opportunities for developing national identity competencies in the educational context of New Uzbekistan

Khurshida SALAVATOVA¹

Urgench State Pedagogical Institute

ARTICLE INFO

Article history:

Received December 2024

Received in revised form

15 December 2024

Accepted 25 January 2025

Available online

15 February 2025

Keywords:

intellectual,
cognitive,
creative,
idea,
national idea,
homeland,
nation,
development,
national pride,
competency.

ABSTRACT

This article explores the methodological opportunities for forming national self-awareness competencies within the context of educational reforms in New Uzbekistan. It examines approaches to developing these competencies based on person-centered, cultural, and integrative methodologies. The role of interactive teaching methods, the importance of the educational environment, and pedagogical-psychological tools for training students as spiritually mature individuals and competitive professionals with developed intellectual abilities are also highlighted.

2181-3663/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss1-pp156-162>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Methodological opportunities for developing national identity competencies in the educational context of New Uzbekistan

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

intellektual,
kognitiv,
kreativ,
g'oya,
milliy g'oya,
vatan, millat,
taraqqiyot,
milliy iftixor,

Mazkur maqolada Yangi O'zbekiston ta'lim sharoitida milliy o'zlikni anglash kompetensiyalarini shakllantirishning metodologik imkoniyatlari, shaxsga yo'naltirilgan, madaniyatshunoslik va integrativ yondashuvlar asosida mazkur kompetensiyalarni rivojlantirish yo'llari, interfaol ta'lim metodlarining roli hamda tarbiyaviy muhitning ahamiyati, talabalarni ma'naviy barkamol shaxs, intellektual qobiliyati

¹ Researcher, Urgench State Pedagogical Institute.

kompetensiya.

rivojlangan raqobatbardosh kadrlar sifatida tayyorlashning
pedagogik-psixologik ta'sir vositalari yoritib o'tilgan.

Методологические возможности формирования компетенций национального самосознания в условиях реформы образования в Новом Узбекистане

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

интеллектуальный,
когнитивный,
креативный,
идея,
национальная идея,
родина,
нация,
развитие,
национальная гордость,
компетенция.

В данной статье рассматриваются методологические возможности формирования компетенций национального самосознания в условиях реформы образования в Новом Узбекистане, пути развития данных компетенций на основе личностно-ориентированного, культурологического и интегративного подходов, роль интерактивных методов обучения, а также значение воспитательной среды и педагогико-психологические средства воздействия для подготовки студентов как духовно зрелых личностей, конкурентоспособных кадров с развитыми интеллектуальными способностями.

KIRISH

Yangi O'zbekiston ta'lim sharoitida bugungi kunda globallashuv va ijtimoiy tarmoqlar axborotlashgan jamiyat sharoitida milliy mentalitet, o'zlikni anglash masalasi har qachongidan ko'ra muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish bilan birga, yosh avlodning tarixiy xotirasi, milliy o'zligini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratish masalasiga alohida urg'u berilgan. Ayniqsa, bu borada talabalarda milliy o'zlikni anglash kompetensiyasini shakllantirishda tarbiyaviy yondashuvni joriy qilish orqali milliy o'zlikni anglash kompetensiyalarini shakllantirish zarurati dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Yangi O'zbekiston ta'lim sharoitida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarning asosiy vazifasi, axloqan kamol topgan, ma'naviy yetuk, tashabbuskor, milliy o'zligini anglagan barkamol avlodni tarbiyalashdan iborat. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev[1] hududlar rivoji, aholi hayoti bilan yaqindan tanishish maqsadida 15-aprel kuni Andijon viloyati tashrifidagi so'zlagan nutqi yosh-avlodning ta'lim - tarbiyasi masalasiga to'xtalar ekan: "Davlatimizning eng ustuvor maqsadlaridan biri – yoshlar siyosati. Ta'lim-tarbiya, mahalla, bandlik, sport tizimlarida qilayotgan ishlarimiz farzandlarimizning manfaatlari uchun. Bizning yoshlarmiz qobiliyatli, iste'dodli. Bu iste'dod qachon yuzaga chiqadi? Mehnat bo'lsa. Bilim olib intilgan odam hech qachon kambag'al bo'lmaydi, ishini topadi. Siz ham o'qib, izlanib, zamonaviy kasb-hunarlarni egallagan, baxtli bo'lish uchun bugun zamin yaratishingiz kerak" degan ushbu purma'no fikrlari mazmunida kelajak avlod kadrlarni tarbiyalash masalasi bugungi kunning dolzarb vazifa sifatida davlat siyosati darajasiga ko'tarish muhimligidan dalolat beradi.

Yangi O'zbekiston ta'lim sharoitida milliy o'zlikni anglash kompetensiyalarini shakllantirishning metodologik imkoniyatlariga oid tadqiqotlar jarayoni hamda ko'p yillik pedagogik tajribalarimiz o'zbek xalqi millat bo'lib shakllangan va undan keyingi ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlarda yuzaga kelgan milliy o'zlikka xos belgi va xususiyatlar sharoitlar

o'zgarganda ham milliy o'zlikni anglashida talabalarda milliy mentalitetni shakllantirish masalasi eng muhim omil sifatida qaraladi. Chunki har qanday millat, o'zining tarixiy taraqqiyoti mobaynida ijtimoiy, madaniy faoliyat, fan, adabiyot, san'at va diniy qarashlar sohasida to'plangan tajribalaridan foydalanish bilan bir vaqtda, ularni avloddan – avlodga meros qoldish zamonaviy milliy o'ziligini yo'qotmagan kadrlarni tayyorlab berish eng muhim omillardandir.

Yangi O'zbekiston ta'lim sharoitida milliy o'zlikni anglash kompetensiyalarini shakllantirishning metodologik imkoniyatlari talabalarda ta'lim-tarbiya jarayonida milliy o'zlikni anglashning mohiyati va tuzilmasi millatning an'anaviy qadriyatlari, jamoaviylik, e'tiqodlilik, Vatanga tayanish, o'zini cheklash, yuksak ma'naviy g'oyalar, mustahkam oila, ma'naviylikni moddiylikdan ustun qo'yishlik, fidoyilik, bag'rikenglik, millatparvarlik asosida rivojlanishi borasidagi fikrlar keng yoritiladi. Milliy o'zlikni anglash jarayonida, avvalo, uning negizida "millat" tushunchasi yotadi. Har bir millat vakili uchun milliy o'zlikni anglash bu qanday millat farzandi ekanligini bilishi, e'zozlashi, undan g'ururlanishi, o'z millat manfaatlari va maqsadlaridan kelib chiqib faoliyat yuritadigan bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash bugungi kunning eng dolzarb vazifasi sifatida qaralmoqda. Pedagogik tadqiqotlar natijasi o'laroq tushuncha sifatida milliy o'zlikni anglash kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlarini tahlil etar ekanmiz, biz tomonimizdan olib borilgan tadqiqotlarni o'rganish doirasida avval, mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning ishlaridagi ilmiy imkoniyatlarni tahliliga to'xtalib o'tishni lozim deb topdik.

MAZMUNI

Milliy o'zlikni anglash kompetensiyalarini tushunchasining pedagogik-psixologik jihatlarini mazmun, shakl va tamoyillariga to'xtalar ekanmiz: "kompetensiya" tushunchasining etimologik tahlilini ham berib o'tish lozim. Dunyo olimlari tomonidan ushbu tushunchani o'rganish jarayonida quyidagi fikrlarga to'xtalib o'tilgan. "Kompetensiya[2]" tushunchasi olimlar tomonidan turlicha talqin etilgan. Ta'limda kompetensiyaviy yondashuv deb, avvalo, "Competence" so'zi "to compete" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "u yoki bu soha bo'yicha bilimdonlik" deya e'tirof etilgan. Ma'lumki, pedagogika fani taraqqiyotida ushbu tushuncha tahliliga nafaqat jahonda, balki mamlakatimiz olimlari tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan va borilyapti ham. Kompetensiyaviy ta'limda faoliyat ko'rinishlari uchun tadqiqotning yakuniy maqsadi kompetensiyalarni shakllantirish masalasi turib uning rivojlantirilishi ham eng ustuvor jihatlardan biri sifatida qaraladi. Milliy o'zlik – bu shaxsning o'z millatiga mansublik hissi, tarixiy-madaniy ildizlariga, ona tiliga, urf-odatlariga bo'lgan ijobiy munosabatidir. Bu jarayon bilim bilan emas, balki shaxsiy hayotiy tajriba, ijtimoiy muhit va tarbiyaviy ta'sir orqali shakllanadi. Kompetensiya – bilim, ko'nikma, qadriyatlar va shaxsiy fazilatlarining birligidir. Milliy o'zlikni anglash kompetensiyasi esa talabaning o'z milliy tarixiga asoslangan ongli, faol fuqarolik pozitsiyasini ifodalaydi.

2022–2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da shaxsni har tomonlama rivojlantirish, ayniqsa, milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlash masalasi ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Shu nuqtayi nazardan, ta'limda mazmuniy va metodik yangilanishlar milliy o'zlik kompetensiyalarini shakllantirishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Yangi O'zbekiston ta'lim sharoitida milliy o'zlikni anglash kompetensiyalarini shakllantirishning metodologik yondashuvlari quyidagi imkoniyatlarni o'z ichiga oladi:

shaxsga yo'naltirilgan yondashuv-har bir o'quvchining shaxsiy qiziqishlari, madaniy tajribasi, ijtimoiy muhitini hisobga olgan holda milliy qadriyatlarni anglash imkoniyatini yaratadi.

madaniyatshunoslik yondashuvi-tarix, adabiyot, musiqa, san'at darslari orqali o'quvchilarni milliy madaniyat bilan tanishtirish, ularni o'zlikni anglashga yo'naltiradi.

integrativ yondashuv-fanlararo integratsiya orqali o'quv dasturlarida milliy qadriyatlarni turli burchaklardan yoritish imkonini beradi. Bunda,

-interfaol ta'lim metodlari

-muammoli ta'lim tezislari

-"case-study"

-rolli o'yinlar

-tarixiy voqealarga tayangan dramatik mashg'ulotlar asosida interfaol metodlar talabalarning faolligini oshiradi, o'z-o'zini anglash va milliy qadriyatlarga nisbatan faol munosabatni rivojlantiradi.

"Yangi O'zbekiston ta'lim sharoitida milliy o'zlikni anglash kompetensiyasini shakllantirishning imkoniyatlari ta'lim jarayonida talabalarga, vatanparvarlik, milliy iftixor ruhida shakllanadigan bilishning o'ziga xos shakllaridan biridir deb e'tirof etish mumkin. Demak, milliy o'zlikni anglash shaxs, jamiyat, ijtimoiy guruh, partiya va boshqalarning muayyan maqsadlarini ifodalaydi, ularni bu yo'lda birlashtiradi, uyushtiradi, faoliyatga undaydi, safarbar qiladi"[3] deb ifodalab o'tgan.

ADABIYOTLAR SHARXI

Respublikamiz olimlaridan S.Otamurodov tadqiqotlarida "milliy g'oya, milliy ongning uyg'otuvchi, millatning o'zligini anglatuvchi, o'ziga xoslikka, mentalitetga "qiyofa" baxsh etuvchi, milliy ruhiyat, g'urur, iftixor, e'tiqod va mas'ullik tuyg'ularini shakllantiruvchi fikrdir"[4]; "Millatning o'tmishi, buguni va istiqbolini anglashni o'zida mujassamlashtirgan, uning etnoijtimoiy birlik sifatidagi tub manfaatlari va maqsadlarini ifodalaydigan, taraqqiyotiga xizmat qiladigan g'oyaga milliy g'oya deyiladi"[5]; "Milliy g'oya – mamlakat xalqini olg'a yetaklovchi ezgu fikrlar to'plami"[6]; "Milliy istiqbol g'oyasi- har bir vatandoshimiz, butun jamiyatimiz a'zolari uchun Vatan oldidagi burchi va mas'uliyatini ijro etishga safarbar etuvchi axloqiy mezondir"[7]; "Milliy g'oya – millatning oliy idealini, uzoq muddatli maqsadlarini, orzu-umidlarini, irodasini, ta'bir joiz bo'lsa, o'ziga xos tarixiy "da'vosini" umumiy shaklda ifodalaydi. U sodda va tushunarli tarzda ikki og'iz so'zda biz intilayotgan, qurayotgan jamiyatning mohiyatini ifodalashi lozim"[8] deb ta'kidlashga asos bo'ladi.

Yangi O'zbekiston ta'lim sharoitida milliy o'zlikni anglash kompetensiyalarini shakllantirishning metodologik imkoniyatlari milliy g'oyaning ta'sir doirasi juda keng bo'lib, u millatning o'ziga xosligini saqlash, umummanfaatlar yo'lida millat vakillarini birlashtirish, uyushtirish va taraqqiyot yo'nalishlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etishi bilan ajralib turadi.

Yangi O'zbekiston ta'lim sharoitida milliy o'zlikni anglash kompetensiyalarini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik jihatlariga to'xtalar ekanmiz avvalo, milliy

o'zlikni anglash omiliga baxsh etuvchi, ruh ato etuvchi milliy g'oyaga ehtiyojning oshishini quyidagi jihatlariga qaratish zarur:

birinchidan, mamlakat suverenitetini ta'minlash, uning ravnaqini yuksaltirishdek asosiy strategik vazifani hal qilishga aholini, avvalo yoshlarni yo'naltirish;

ikkinchidan, bu borada aholining barcha qatlamlarini, ijtimoiy guruhlarini birligiga asoslangan ijtimoiy hamkorlikni vujudga keltirish. Milliy g'oya har bir shaxsning dunyoqarashi, kundalik faoliyatida o'z ifodasini topib, millat ongida chuqur ildiz otgan taqdirdagina umummilliy harakat vujudga keladi;

uchinchidan, millat vakillaridan vatanparvarlik, ona zaminning muqaddasligi tuyg'usini uyg'otish, uni ko'z qorachig'idek asrash kerakligini tushunib yetishiga ta'sir o'tkazish. Milliy g'oya yoshlarda ona-Vatanga bo'lgan mehr-muhabbatni mustahkamlaydi;

to'rtinchidan, sifat jihatidan yangi ma'naviy-madaniy, siyosiy va mafkuraviy qadriyatlarga yo'naltirilgan, millat taqdiri uchun ma'sul bo'lgan barkamol shaxsni shakllantirish zarurati. Har bir shaxs o'zga millatlar doirasida o'z millati vakillari erishgan yutuqlar bilan faxrlanishi, uning izchil davomchisi bo'lishi lozim. Shu sabab milliy g'oyani yurtimizda yashayotgan barcha millat va elatlar, ijtimoiy toifa vakillari o'rtasida keng targ'ib etish, bunyodkorlik ruhini yalpi ijtimoiy harakatga aylantirish, ertangi kunga ishonch tuyg'ularini kuchaytirish masalalariga davlatimiz rahbari tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarda alohida o'rin egallamoqda.

Xorijiy mamlakatlar olimlari tomonidan tadqiq etilgan ilmiy izlanishlar doirasida ta'limda kompetensiya tushunchasi tahliliga alohida to'xtalib o'tilgan. "Kompetensiya" tushunchasi fanga kiritilganidan so'ng, olimlar tomonidan izlanishlar olib borila boshladi.

Ingliz olimi psixolog Dj.Raven[9]ning ilmiy tadqiqotlari doirasida jamiyatda ushbu tushunchaning tahliliga alohida urg'u beradi, u o'z tadqiqotlarida kompetensiya tushunchasining pedagogik-psixologik jihatlariga to'xtalib o'tadi. Olim o'z izlanishlari doirasida "ko'p sonli komponentlarni tahlili asosida, ulardan ko'pchiligi bir-biriga nisbatan mustaqil, ayrim komponentlar ko'proq kognitiv sohaga, boshqalari esa – emotsional sohaga taalluqli, mazkur komponentlar samarali xulqni tashkil qiluvchilar sifatida bir-birini to'ldirishi mumkin" deb ifodalagan.

Rus olimi pedagog B.Gershunskiy[10] kompetensiya tushunchasini inson mehnat faoliyatining kasbiy rivojlanish sohasiga nisbatan o'rgangan bo'lib, u shaxsning mustaqil rivojlanishida "kasbiy ta'lim darajasi, insonning tajribasi va individual xususiyatlari, uning uzluksiz mustaqil ta'limga motivli intilishi va o'z-o'zini takomillashtirishi, ishga ijodiy va mas'uliyatli munosabati" alohida o'rin tutishi kabi masalalarni alohida takidlab o'tadi. Olim kasbiy rivojlanishda kompetensiyani savodxonlik, ma'lumotlilik, kasbiy kompetensiya, madaniyat va mentalitetdan tashkil topgan ta'lim samaradorligining strukturaviy bo'g'inini tashkil etuvchi sifatlarda biridir deb ifodalab o'tadi.

I.Frumin[11] tadqiqotlarida ta'limda kompetensiyani ma'lumotlar va malakalarning oddiy kombinatsiyasi sifatida qaralmaydigan va haqiqiy masalalarni hal etishga yo'naltirilgan ta'limiy natijaning yangi turi sifatida e'tirof etadi. Ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishning yo'nalishlari u asosiy kompetensiyalar, umumlashgan maqsadli ko'nikmalar, amaliy predmetli ko'nikmalar

va hayotiy malakalar deb atagan va ular orasida eng muhimi asosiy kompetensiyalar g'oyasi hisoblanadi deb ifodalab o'tgan.

Olim L.Davidov[12] tadqiqotlari doirasida kompetensiya masalasiga alohida urg'u berib, bir aniq sifatlarni rivojlantirishda kompetensiyaviy ta'limning o'zaro aloqador va o'zaro bog'liq bilim, ko'nikma va malaka, amaliy faoliyat tajribasi sifatida qarash muhim o'rin tutadi.

Olim tomonidan kompetensiyaviy ta'limning komponentlari tarkibi quyidagi jihatlarga ajratgan holda ifodalagan: ya'ni,

- kompetensiyaning yuzaga kelishi (ya'ni, motivatsion jihat);
- kompetensiya mazmuniga oid bilimga egalik (kognitiv faoliyat);
- kompetensiyaning turli-tuman standart va nostandart vaziyatlarda namoyon bo'lishi (xulqiy jihat);
- kompetensiya mazmuniga va uning ob'ektiga munosabat (qadriyatli-mazmunli faoliyat);
- ta'limda kompetensiyaning namoyon bo'lish jarayoni va natijasi emotsional-irodaviy tartib kabi sifatlarga ajratiladi.

XULOSA

Demak, bo'lajak o'qituvchilarda milliy o'zlikni anglash kompetensiyalari yoshlarda bunyodkor g'oyalarning mazmun-mohiyatan sog'lom yoki nosog'lom, ezgu yoki yovuz, bunyodkor yoki buzg'unchi bo'lishi mumkinligini yoritish muhim pedagogik vazifa sifatida qaralmoqda.

Bizga ma'lumki, Yangi O'zbekiston ta'lim sharoitida milliy o'zlikni anglash kompetensiyalarini shakllantirishda talabalarning kundalik fikrlaridan farqli yana o'z tafakkurida paydo bo'lsada, keng jamoatchilik manfaatlarini ifoda etmoqda. Demak, talabalarda milliy o'zlikni anglash kompetensiyalarini shakllantirish asosiy omil sifatida o'ziga ishonch va e'tiqodga aylanib e'tirof etilganligi sababli talabalarni vatanga sadoqat ishonch, mamlakat taqdiri uchun jon kuydiradigan kadrlar etib tarbiyalash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Халқ сўзи. 2025 yil 15-aprel kuni Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев хуудлар ривож, аҳоли ҳаёти билан яқиндан танишиш мақсадида 15 апрель куни Андижон вилояти ташрифидаги сўзлааган нутқи, 2025 й. 16 апрель №-77 сон.
2. Қори Ниёзий номидаги Ўзбекистон педагогика фанлари илмий тадқиқот институти. Педагогик атамалар луғати. -Т.: 2008 й.
3. Otamurotov S. Otamurotov S. O'zbekistonda ma'naviy-ruhiy tiklanish. T.: 2003.- 219 b
4. Otamurotov S. Otamurotov S. O'zbekistonda ma'naviy-ruhiy tiklanish. T.: 2003.- 219 b
5. Ochiliev A. Milliy g'oya va millatlararo munosabatlar. T.: 2004.- 15 b.
6. Olim S. Milliy mafkura –xalq tayanadigan kuch. T.: 2000.-5 b
7. Milliy istiqlool g'oyasini shakllantirishda tashkiliy-uslubiy yondashuvlar (kadrlar tayyorlash milliy dasturi vazifalari doirasida). T.: 2002.-19 b
8. Erkaev A. Milliy g'oya mohiyati. – T.: «Ma'naviyat», 2001. – 6 -bet

9. Raven Dj. Kompetentnost v sovremennom obshestve: viyavlenie, razvitie i realizasiya // - М., «Kogito-Sentr», 2002. – 281-296 s.
10. Гершунский Б. Философия образования XXI: В поисках практико ориентированных концепций.-М.: Пед. общ. России., 2002 г.- 512 с.
11. Фрумин И.Д. Введение в теорию и практику демократического образования. Красноярск, 1998, с 92.
12. Давыдов Л. К вопросу о компетентностном подходе в образовании // Л.Давыдов //Современные проблемы воспитания и образования. Психолого-педагогический сб.науч.труд. М.А. Шолохова, 2006 г.- С. 120-123.